



## O'ZBEKISTON PREZIDENTI QATAR DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-dekabr kuni Qatar Davlatining Qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha markazi Vasiylik kengashi raisi Ali Muhsin al-Mariy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida rais Ali Muhsin al-Mariy davlatimiz rahbariga Qatar Amiri Tamim bin Hamad Ol Soniyning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Qatar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va investitsiyalar hajmi ortmoqda, yirik qo'shma loyihalar tayyorlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak muhim xalqaro tadbir — Qatar Amiri tashabbusi bilan ta'sis etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashishda ulkan yutuqlar uchun" global mukofotini topshirish marosimini O'zbekistonda o'tkazishga tayyorgarlikning borishi ko'rib chiqildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, tajriba almashish va qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani tasdiqlandi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## ISLOHOTLAR DASTURINING NATIJADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR KO'RIB CHIQLDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-dekabr kuni iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchi Suma Chakrabarti bilan uchrashuv o'tkazdi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturining natijadorligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarning borishi va kelgusi rejalar ko'rib chiqildi. Investitsiya va ishlabarmonlik muhitini takomillashtirish, xorijdagi yetakchi kompaniya va moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yirik loyihalarni ilgari

surish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi jarayoni va mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rini yuksaltirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

O'ZA

## BUGUNING GAPI

### "BETTER COTTON" DASTURI o'tgan bir yil davomida muhim natijalarga erishildi

Yurtimizda o'tgan yilning noyabr oyida "Better Cotton Initiative" (BCI) nodavlat notijorat tashkilotining "Better Cotton" dasturi rasman ishga tushirilgan edi. Paxta yetishtirish tajribasi va to'g'imachilik sanoatida yaxshilangan sharoit tamoyiliga asoslangan mazkur dasturning ahamiyati katta. Binobarin, mutaxassislar ushbu standart tartiblariga mos yetishtirilgan paxtani yetkazib berishning ayni vaqti, deya hisoblaydi.

Davomi 2-betda

## YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMI BO'YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-dekabr kuni yoshlar siyosatida amalga oshirilgan ishlar va kelgusi yildagi ustuvor vazifalar bo'yicha hisobot bilan tanishdi.

Bu boradagi chora-tadbirlar 7 ta yo'nalishda amalga oshirildi. Davlatning alohida e'tiboriga muhtoj 396 ming nafar yoshlar mutasaddi rahbarlarga birlashtirilib, ular bilan individual ishlash orqali 331 mingining hayotda o'z o'rini topishiga ko'maklashildi. Jumladan, 94 ming nafarining bandligi ta'minlandi, 56 mingi kasb-hunarlariga o'qitildi.

"Yoshlar daftari" orqali ko'rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetdi, murojaatlarni ko'rib chiqish muddati esa 30 kundan 5 kungacha qisqardi.

Joriy yilda yoshlar yetakchilari tavsiyasi bilan 338 ming nafar yigit-qizga 444 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. Xususan, talabalarining shartnoma mablag'lari to'landi, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarga o'qitish xarajatlari qoplab berildi. Ishsiz yoshlarga mehnat qurollari ajratildi.

Har bir mahallada "Yoshlar bandligi dasturi" amalga oshirilib, joriy yilda 236 ming nafar ishsiz yigit-qiz va 189 ming nafar maktab bitiruvchisining bandligi ta'minlandi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" bu yildan boshlab 4 ta yo'nalishda — mahalla, maktab, professional ta'lim va oliyog'lar tizimida o'tkazilib, jami 12 million nafar yoshlar qamrab olindi. Unda g'olib bo'lgan yoshlarning mahallalarida jami 623 ta sport maydonchasi barpo etildi.

Iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida kecha-yu-kunduz faoliyat yuritadigan ilk "Kreativ park" foydalanishga topshirildi. "Zakovat" va boshqa intellektual o'yinlarga 2 million nafar yoshlar jalb qilindi.

Prezidentimizga Navoiy viloyatida barpo etilgan To'dako' xalqaro shaxmat maktabi to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlangan ushbu maktab yil davomida 1 ming 700 nafar o'g'il-qizni o'qitish va 7,5 ming nafar yoshni

turli tadbirlar bilan qamrab olish imkoniyatiga ega. U yerda jahon va Osiyo chempionatlari, universiada kabi xalqaro musobaqalarni o'tkazish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu maktabga xalqaro grossmeysterlarni olib kelib, olis hududlardagi iqtidorli bolalarni ham jalb qilish, ular uchun shaxmat bo'yicha qisqa muddatli oromgohlar tashkil qilish va tegishli sertifikatlar berishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Shuningdek, u mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablari uchun tajriba va metodika manbai bo'lishi kerakligi, shaxmat darslarini olib borish jarayonini raqamlashtirish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga ham e'tibor qaratildi.

Har bir hudud, vazirlik va idoralar tizimida yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha yondashuv joriy etiladi. Yoshlar yetakchisi tavsiyasi bilan beriladigan yordam turlari transformatsiya qilinib, asosiy e'tibor ularni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatishga qaratiladi.

Bolalarning ko'nikmalari, qiziqishlari va iste'dodini rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston bolalar tashkilotini tuzish taklifi bildirildi. Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash borasidagi ilmiy-tadqiqot va tahliiliy ishlarni takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

"Ibrat farzandlari" loyihasi orqali xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlar sonini 1 million nafarga, "Mutolaa" dasturi orqali yosh kitobxonlar sonini 1,5 million nafarga yetkazish choralari ko'riladi. Buning uchun hududlarda qo'shimcha infratuzilma barpo etilib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidor va iste'dodini ro'yog'ba chiqarish uchun yanada keng sharoitlar yaratiladi.

O'ZA

## TARAQQIYOT YO'LI

### "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILI

har birimizga tenglik va adolat prinsipi asosida munosib yashash sharoitini yaratmoqda

Joriy yil mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy-ijtimoiy voqealarga boy bo'ldi. Xususan, 30-aprel kuni bo'lib o'tgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilindi.

Bosh qonunimizda barcha qatlam manfaatlarini inobatga olingani, "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili muhrlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar uch barobar oshgani uning chinakam xalq Konstitutsiyasi bo'lganidan dalolat beradi. Zero, "inson qadri" tushunchasi "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu g'oyaning tub negizida, avvalo, inson qadri ulug'lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat esa har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi.



Davomi 3-betda

## MUNOSABAT

Bugungi kunda butun dunyo iqlim o'zgarishlari — cho'llanish, suv taqchilligi, yerlar degradatsiyasi, qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlardan aziyat chekmoqda. BMTning yaqinda Dubay shahrida bo'lib o'tgan Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi mazkur global muammolar oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan taklif va tashabbuslarga boy bo'lgani, 2014-yil Parij sammitida imzolangan bitimda belgilangan maqsadlarga qanday erishilayotgani sarhisob qilingani va ekologik muammolar yechimiga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilinishi bilan ahamiyatli bo'ldi.

### IQLIMNI ASRASH BORASIDA O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA TASHABBUSLARI

ekologik muammolar oqibatlarini yumshatishga xizmat qilmoqda

Davlatimiz rahbari mazkur konferensiyadagi nutqida dunyoning 170 dan ziyod mamlakati davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar mas'ullari e'tiborini iqlim o'zgarishi-

ga qarshi faqat birdamlik va keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kurashish mumkinligiga qaratib, bu borada qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Davomi 4-betda

## BIZ VA DUNYO

### OLTIARIQ UZUMLARI NYU-YORKDA HAM XARIDORGIR

Oltiariq tumanidan AQSHga tajriba tariqasida olib borilgan uzum ikki kunda sotildi.

AQSHda o'tkazilgan marketing tahlillariga ko'ra, O'zbekistondan tajriba tariqasida yetkazilgan hussayni navli uzum ta'mi va ko'rinishi amerikalik xaridorlar o'rtasida katta qiziqishga sabab bo'ldi.

Noyabr oyi boshida Nyu-York shahriga Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidan tajriba tariqasida yetkazilgan bir tonna uzumning barchasi mahalliy aholi tomonidan ikki kunda xarid qilindi. Shu sabab yurtimizdan yangi uzumning yanada kattaroq partiyasini yetkazish bo'yicha muzokaralar boshlangan edi. Natijada joriy yil 14-dekabr kuni AQSHning "E.L.A. Superior Produce Inc." va Farg'ona viloyatidagi

"Seraxun" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida umumiy qiymati 2 million dollarga teng qo'shimcha eksport shartnomasi imzolandi.

Hujjatga muvofiq, Farg'ona dehqonlari tomonidan yetishtirilgan 250 tonna uzum havo transporti orqali Nyu-York shahriga yetkaziladi va "NetCost" oziq-ovqat savdo tarmoqlari orqali sotiladi.

O'zbek diplomatlari, shuningdek, O'zbekistondan quritilgan mevalarning AQSH va Kanadaga eksportini yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralarni davom ettirmoqda.

Vashington

"Dunyo" AA



## BUGUNNING GAPI

## “BETTER COTTON” DASTURI

## o'tgan bir yil davomida muhim natijalarga erishildi

Boshlanishi 1-betda

Hozirgi kunda BCI standarti jahon bozori talabidir. Qayerda ushbu tamoyillarga katta urg'u berilsa, o'sha joyga intilish kuchayadi. Mahsulot bozori chaqqon bo'ladi. O'zbekiston paxtasiga bugun butun dunyoda talab yuqori ekanini inobatga olsak, bu biz uchun juda muhim.

“Better Cotton Initiative” paxta yetishtirish va qayta ishlashning salbiy ta'sirini bartaraf etish orqali dunyo bo'ylab paxta ishlab chiqarishni o'zgartirishga intiladi.

U paxta yetishtirishning eng maqbul standartlarini butun dunyo bo'yicha targ'ib qiluvchi tashkilot sifatida fermerlarga suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlab qolish, o'simliklarga himoya vositalari zararli ta'sirining oldini olish, paxta tolasi sifatini saqlab qolish, mehnat xavfsizligini ta'minlash, sug'orishning samarali usullarini qo'llash, kimyoviy o'g'itlarni kamaytirish bo'yicha treninglar tashkil etadi. Boshqacha aytganda,



amalga kiritilganiga bir yil bo'ldi va o'tgan vaqt mobaynida biz bir qator ishlarni amalga oshirdik, — deydi “Better Cotton” dasturi katta menejeri Reychel Bekket. — Xususan, yanvar oyida O'zbekistonda birinchi litsenziyamizni taqdim etgan bo'lsak, iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tgan “To'qimachilik haftaligi” doirasida tashkil etilgan “To'qimachilik sanoatida ijtimoiy tadbirkorlik” mavzusida o'tkazilgan xalqaro forumda ishtirok etdik. Unda Odam savdosiga va majburiy mehnatga

Umuman olganda, biz dastur doirasida to'rtta yo'nalishga e'tibor qaratdik. Birinchisi — samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, ikkinchisi — barqarorlik va samarali mehnat tizimini o'rnatish orqali faoliyatni kengaytirish, uchinchisi — manfaatdor tarafdorlarning xabardorligini oshirish hamda to'rtinchisi — strategik vazifalarni ishlab chiqish.

E'tiborlisi, bir yilda faoliyatimizni ikki barobar kengaytirdik. Hamkor fermerlarimiz ko'paydi. Dastur tamoyillarini butun respublika bo'ylab joriy etishda yaxshi natijalarga erishdik. Xususi sektor bilan ham faoliyatimizni jadallashtiryapmiz. O'zbekistonning yettita hududida seminar-treninglar, tadbirlar tashkil etilib, ularga 200 dan ortiq fermerlar jalb qilindi.

Shuningdek, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan birga mingdan ortiq ishtirokchilarga gender tenglik, mehnat sharoitlari xususida maxsus treninglar o'tkazdik. “Better Cotton”ning asosiy yo'nalishlaridan biri monitoring olib borishdir. Bu — muammolarni aniqlash va ularga yechim topishda katta ahamiyatga ega.

Aytish kerakki, so'nggi yillarda mamlakatimizda agrar sohani qo'llab-quvvatlash, isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, tarmoqni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi” ishlab chiqilgan. Unda belgilangan 9 ta ustuvor yo'nalish qisqa va uzoq muddatli islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ayni paytda ular asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Paxtachilikni zamonga mos takomillashtirish shular sirasiga kiradi. Bunday o'zgarishlar Prezidentimizning yaqinda qishloq xo'jaligi xodimlariga yo'llagan bayram tabrigida ham alohida qayd etildi. Tabriqda har bir qarich yerdan hamda har bir tomchi suvdan unumli foydalanadigan, doimo izlanib, o'ziga xos tajriba yaratgan insonlar haqiqiy vatanparvar sifatida qadrlanishi ta'kidlanish barobarida, joriy yilda ham mana shunday klaster va fermerlar tomonidan 100 ming gektar yer foydalanishga kiritilgani, iqlim o'zgarishi, global isish oqibatida suv tanqisligining oldini olish uchun 500 ming gektarda suv tejavochi texnologiyalar joriy qilinib, 3 milliard kub metr suv tejalgani aytib o'tildi.

Sohada zamonaviy ilmiy va innovatsiyalarga asoslangan resurstejamlor texnologiya hamda agrotexnik tadbirlar tufayli bioo'g'itlarni qo'llash hisobiga tuproq sifatini yaxshilash, birgina paxtachilikda hosildorlik 10 foizga oshgani e'tirof etildi. “Better Cotton” dasturi aynan tabiiylikka tayanadi. Demak, uning nafaqat paxta tolasi yoki undan tayyorlangan mahsulotlar bozori uchun, balki yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorlikda ham ahamiyati katta.

— Shuni aytish kerakki, mazkur dasturning O'zbekistonda joriy etilishi katta muvaffaqiyat, — deydi “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi raisi Ilhom Haydarov. — Chunki bu yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang va Prezidentimiz ilgari surayotgan tashabbuslar, olib borilayotgan islohotlar dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganini anglatadi.



**“KLASTER TIZIMIGA O'TISH MAMLAKATIMIZ QISHLIQ XO'JALIGIDA HAM, TO'QIMACHILIK SOHASIDA HAM QISQA VAQT ICHIDA CHUQURO'ZGARISHLARGA ZAMIN YARATDI. SHU NUQTAYI NAZARDAN, O'ZBEKISTONDA MAZKUR DASTURNING BOSHLANISHI YURTIMIZ PAXTA SANOATI UCHUN MUHIM BOSQICH BO'LIB, SHAFFOLIK VA BARQAROR ISHLAB CHIQARISH KAFOLATINI TA'MINLAYDI. BU YUTUQLAR TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISH IMKONIYATIMIZNI SEZILARLI DARAJADA OSHIRADI.**

“Better Cotton” dasturi “yashil” sanoatga o'tishning muhim bosqichidir.

— Paxta sanoati barqarorligini ta'minlash maqsadidagi mazkur tashabbus — “Better Cotton” dasturi O'zbekistonda

qarshi kurashish milliy komissiyasi, “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi o'rtasida 2023-2024-yillarda “Barqaror rivojlanish bo'yicha hamkorlikdagi tadbirlar rejasini”, ya'ni “Yo'l xaritasi”ni imzoladik.



## INSON QADRI UCHUN

## HECH KIM O'Z MUAMMOLARI BILAN YOLG'IZ QOLMAYDI

## Sakkiz yillik dard chekindi

Kegeyli tumanining “Yangibozor” ovul fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Gulsara Maxsetbayeva 8 yoshli qizaloq. U yurak xastaligi bilan tug'ilgan edi. Uning darddan chekkan azoblari o'ziga va validasiga ayon. Onasi bechora Allohdan qizining sog'ayib ketishini tilab, qancha kunu tunlarni bedor o'tkazmadi, deysiz.

O'sha paytda jarrohlik amaliyoti uchun 30 million so'm pul kerak edi, ammo topishning imkoni bo'lmadi. Nihoyat, umr yo'ldoshi xorijga ish izlab ketishga qaror qildi. O'sha kunlarda oilaga davlatimiz tomonidan yordam ko'rsatildi. Gulsaraning jajji yuragi Nukus shahriga tashrif buyurgan amerikalik shifokorlar tomonidan operatsiya qilindi. Hozir uning salomatligi va o'qishlari yaxshi.

## Bir necha bosqichda filtranadi

Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Shu maqsadda hududlarda suvni filtrlash inshootlari qurilmoqda. Yaqinda Beruniy tumanining

“Tinchlik” ovul fuqarolar yig'inidagi ikkita qishloqning 200 dan ziyod xonadoni toza ichimlik suv bilan ta'minlandi.

— Prezidentimizning 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga asosan, 430 million so'm mablag' evaziga suvni chuchuklantiruvchi stansiya qurilib, barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlandi. Suv yer ostidan olinib, stansiyada bir necha bosqichda qayta tozalashdan o'tadi va iste'molga yaroqli holga keltiriladi. Stansiyaning muntazam ishlashi uchun quyosh panellari ham o'rnatilgan, — deydi mazkur ovul fuqarolar yig'ini raisi Odilbek Tojibekov.

## Har bir oila baxtli

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida Beruniy tumanida 1189 uy-joyning tom qismini ta'mirlash, yashash uchun yaroqsiz deb topilgan 18 uy-joyni buzib, qayta qurish belgilangan edi. Qaror ijrosi tumaning har

bir mahallasida ta'minlandi. “Shabboz” ovul fuqarolar yig'inida yashovchi Olmagul Tajibayeva bugun yangi uyda oila a'zolari bilan yashab, o'tayotgan har bir kuniga shukronalar aytmoqda.

Tumanning Birlik mahallasidagi 29 xonadonning tomi shiferlab berildi. Uy egalari ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rliklardan juda minnatdor. Zero, fuqarolarimiz bugun yaxshi yashashga, baxtli bo'lishga haqli.

— 50 yillik orzum ushaldi, — deydi “Shabboz” ovul fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Orzigul Kulanova. — Endi qor-yomg'irda uyimdan chakka o'tmaydi. Bundan buyon chelak, tog'ora ko'tarib yurmaydigan bo'ldim. Bu ishning boshida turganlarning barchasiga mingdan-ming rahmat.

Elikqal'a tumanida ta'mirlanadigan 1893 xonadon aniqlangan edi. Ularning 270 tasi turmush sharoiti og'ir aholiga tegishli va 23 tasi yaroqsiz holatga kelgan, buzib quriladigan uylar. Tumandagi “Toshkent” mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi boquvchisi yo'q yolg'iz ayol Aliya Jarimbetovaning xonadoni yangidan qurib berildi.

— Bu kunlarni ko'rib, shunday ajoyib zamonada yashayotganimga shukronalar aytaman. O'tgan vaqt mobaynida mustaqil

yurtimizda olamshumul o'zgarishlar bo'ldi. Ko'z ko'rsa quvonadigan, oynaday tekis asfalt yo'llar, yangi zamonaviy uylarning ko'rinishi dilni yayratadi, — deydi Qavatqal'a mahallasida istiqomat qiluvchi nuroniy Jamaladdin Xolmuradov.

Vazirlar Mahkamasining yuqorida tilga olingan qarori doirasida Elikqal'a tumanida 3 milliard 609 million so'mlikdan ortiq ishlar amalga oshirildi. Shu kunlarda “Guldursun”, “Jasorat”, “Navbahor”, “Toza bog'”, “Oq oltin”, “Guliston”, “Sharq yulduzi”, “Aqchako'l”, “Ifixor”, “Navoiy”, “Kichik Guldursun”, “Do'stlik”, “Qavatqal'a” mahalla va ovul fuqarolar yig'inlarida ichki yo'llarga qum-shag'al yotqizilib, ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

## Yangilanishlarning haqiqiy ijodkori

Mamlakatimizda xalq farovonligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish sohasini zamon talablari darajasiga ko'tarish va aholi hayotiga oid maishiy muammolarni tizimli ravishda hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli eng chekka qishloqlarda yashovchi aholi uchun ham zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-noyabrdagi “Ayrim sanoat

E'tiborlisi, paxtamizning xalqaro darajada qabul qilinishiga bir necha yil mobaynida tayyorgarlik ko'rilgan. Negaki, ilgari paxtamizga e'tibor boshqacha edi. Hozir esa ko'rib turibmizki, dunyoda tan olingan dastur O'zbekistonda o'z ishini samarali olib bormoqda. Barcha ushbu tashkilot litsenziyasini olishni xohlaydi. Chunki bugun jahon bozorida har bir mahsulot nimadan ishlab chiqarilgan, kim mehnat qilgan, yetishtirishda nimalardan foydalanilgan — barcha jihatlari inobatga olinadi. “Better Cotton” dasturi esa bu kabi savollarga javob beradi.

Mamlakatimizda klaster tizimi yo'lga qo'yilgani bu borada to'liq kuzatuvchilikni ta'minlab beryapti. Buni nafaqat hamkorlarimiz, balki ekspert va mutaxassislar ham qabul qilaypti.

Klaster tizimiga o'tish mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham, to'qimachilik sohasida ham qisqa vaqt ichida chuqur o'zgarishlarga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda mazkur dasturning boshlanishi yurtimiz paxta sanoati uchun muhim bosqich bo'lib, shaffoflik va barqaror ishlab chiqarish kafolatini ta'minlaydi. Bu yutuqlar to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatimizni sezilarli darajada oshiradi.

Yana bir gap. “Better Cotton” yangi tamoyillarni amalga kiritaypti. O'ylashimcha, ularni amalga oshirish qiyin bo'lmaydi. Chunki ushbu mezonlarning bir nechtasi bizda joriy qilib bo'lingan. Masalan, gender tenglik masalasi yurtimizda muammosiz qabul qilingan. Qolaversa, iqlim o'zgarishlariga bo'lgan munosabatlar, suvni tejash masalalari davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. Bular O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar naqadar to'g'ri ekanini bildiradi.

Bunday o'zgarishlar to'qimachilik sanoati eksportida ham o'z aksini topmoqda. Ya'ni mamlakatimiz to'qimachilik mahsulotlari eksporti yil sayin oshib boryapti. Masalan, joriy yilda eksport hajmi 3 milliard dollardan ortdi. Qolaversa, yurtimizga investorlarning e'tibori ham oshib boryapti. Qisqa qilib aytganda, paxta yetishtirishdagi yangi mezonlar nafaqat to'qimachilik sanoati, balki butun iqtisodiyotimizda natijasini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda “Better Cotton” dasturi amalga oshirilishi tikuv-to'qimachilik sanoatiga zamonaviy, energiya tejavochi texnologiyalarni keng tatbiq etish, ishlab chiqarishning ekologiyaga ta'sirini kamaytirish bilan birga, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, mehnat munosabatlari xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, munosib va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Buni bugun klasterlar vakillari o'z faoliyatida bilib, sezib turibdi.

— Aslida, “Better cotton” tamoyillari juda murakkab shartlar emas, — deydi “Samarqand Cotton” klasteri vakili Ashraf Shonazarov. — Negaki, paxtachilik sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida ko'pgina me'yoriy talablar tartibga solingani bizga juda katta yordam bo'ldi. Ya'ni tamoyillarni oson o'zlashtirishimizda qo'l keldi.

Shu bilan birga, bunggacha ayrim ishlarni betartib amalga oshirganimiz ham bor gap. BCI tamoyillari asosida esa taxminiy harakatlarga chek qo'yildi. Ular aniq hisob-kitob va hujjatlar talabi bilan amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, mehnat munosabatlari yaxshilandi. Ekologiyaga e'tibor kuchaydi. Tuproq va suvni boshqarishda samaradorlikka erishildi. Ekinni taxminiy oziqlantirish orqali tuproqni bilib-bilmay zararlantirib qo'yganmiz. Tamoyillar bunday holatlarining oldini oladi. Bularning bari korxonada ishlab chiqarishda ham qabul qilyapti. Masalan, bu yil klasterimizga qarashli “Navbahor tekstil” korxonamiz uchun 1300 gektar maydonda ushbu talablar asosida paxta xomashyosi yetishtirildi.

Oldin mahsulotga xaridor topish klasterlarning, tabir joiz bo'lsa, “bosh og'rig'i” edi. Bugun bu muammo emas. BCI litsenziyasi tufayli xaridorlar, dunyo to'qimachilik sohasidagi brendlar vakillari bizni izlab kelyapti. Bular, tabiiyki, har qanday korxonada faoliyatini kengaytirish, yangi loyihalarni ishga tushirishga katta turki beradi.

Joriy yil mamlakatimizda 3 million 800 ming tonna paxta xomashyosi hosili yig'ib-terib o'ldi. Bu chakana raqam emas. Keyingi yillarda yurtimiz paxtachilik tarmog'ida yuqori sifatli, sanoatbop tola olishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda yangi tashabbuslar, samarali loyihalar ilgari surilmoqda.

Prezidentimiz huzurida 12-dekabr kuni paxta xomashyosini yetishtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda bunga alohida e'tibor qaratildi. Yig'ilishda paxta urug'chiligi rivojlantirish, hosildorligini oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Jumladan, tajriba tariqasida 14 ta tumanning ball boniteti past, suv ta'minoti og'ir bo'lgan hududlarida yuqori hosildor mahalliy va xorijiy navlar joylashtirilishi belgilandi. Xorijdan olib kiriladigan paxta navlari uchun alohida agrotexnika hamda soddalashtirilgan karantin talablarini joriy etish, ushbu navlarni yetishtirishni maxsus karantin kuzatuvida va Paxtachilik kengashi ilmiy ko'rsatmasi asosida olib borish muhimligi qayd etildi.

Ko'rinadiki, paxtachilikda amalga oshirilayotgan majburiy mehnatdan xoli, toza, sifatli va sanoatbop mahsulot yetishtirish borasidagi ishlar bu kabi yangiliklarga xos tarzda takomillashtirib boraveradi.

**Dilshod ULUG'MURODOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, import va eksportchi korxonalariga bir qancha qulayliklar yaratildi. Beruniy tumanidagi “Rayhon apparel” mas'uliyati cheklangan jamiyati joriy yilda o'z ishini boshlagan edi. 500 kishining bandligi ta'minlangan fabrika tayyor mahsulotlarini Xitoy va Rossiyaga eksport qilmoqda. Korxonada kiyimlarga gul va boshqa ko'rinishdagi suratlarni yopishtiruvchi uskuna Shevetsariyadan keltirilgan bo'lib, shu kunlarda avstriyalik mutaxassislar ularni o'rnatish ishlari bilan band.

— Fabrikadagi bichish-tikish mashinalari Yaponiya va Germaniyadan keltirilgan. Ayni paytda turkiyalik mutaxassislar chevarlarimizga ularni ishlatishni o'rgatmoqda. 2023-yil noyabr oyi holatiga ko'ra, korxonamiz tomonidan

1,5 million dollarlik mahsulot xorij bozorlariga chiqarildi, — deydi muassasa ish yurituvchisi Yerbol Yelejev. — Biz singari eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar sabab O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning jahon bozorida o'z o'rimga ega bo'lishiga zamin yaratilmoqda.

Aytish joizki, yurtimizdagi islohotlar tufayli qisqa davrda amalga oshirilgan olamshumul o'zgarishlar, yangilanishlar, yuksalishlar barcha hududlarni, eng chekka ovul va mahallalarni ham qamrab oldi. Odamlar ushbu yangilanishlarning haqiqiy ijodkorlari bo'lmoqda. Bunday xayriy ishlar, avvalo, fuqarolarimizning baxti, farovon turmushi, o'z hayotidan rozi bo'lib yashashiga xizmat qilmoqda.

**Minajatdin QUTLIMURATOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



TARAQQIYOT YO'LI

# “IJTIMOIY DAVLAT” TAMOYILI

## har birimizga tenglik va adolat prinsipi asosida munosib yashash sharoitini yaratmoqda



**Mavluda XO'JAYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Joylarda bandlik sohasidagi ishlar samarali tashkil qilinishi va bandlik dasturlari ijrosi ta'minlanishi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Oliy Majlis palatalari tomonidan ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida 10 ta hududda o'rganishlar o'tkazilib, yakunlari tegishli mas'ullar ishtirokida muhokama qilindi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 25-yanvar kuni kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishida 2023-yilda 5 million kishining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash belgilangandi. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, xususan, aholiga yer berish orqali 2,6 million, xizmatlar va tadbirkorlik sohasida 2,1 million, investitsiya va sanoat bo'yicha 300 ming kishining bandligini ta'minlash maqsad qilingan. Joriy yilning 9 oyida esa doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish o'rinlarining barchasini hisobga olganda jami 4 million 605 ming kishining bandligi ta'minlandi. Bu boradagi ishlar tizimli ravishda davom etmoqda.

Xorijdagi vatandoshlarimizga munosabat o'zgardir

Tashqi mehnat migratsiyasi sohasini yangi bosqichga ko'tarish, mehnat migrantlari va ularning oilalariga joriy qilingan imtiyoz va kafolatlarni kengaytirish, xorijdagi mehnat migrantlarini huquqiy, moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Xorijdagi vatandoshlarimiz huquqlarini

himoya qilish, sharoitlarini yaxshilashga e'tibor kuchaydi. Ularni qo'llab-quvvatlash uchun alohida jamg'arma tashkil etildi.

Joriy yil yanvar-sentyabr oylarida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va xususiy bandlik agentliklari tomonidan 31 ming 577 fuqaro xorijiy davlatlarga ishga joylashtirildi. Shu davrda 589,3 ming migrant xorijdan qaytdi. Ular o'rtasida o'tkazilgan monitoring natijasida chetdan qaytganlarning 380,5 ming nafari ish bilan band ekani aniqlandi. Shuningdek, bandlik organlari orqali migratsiyadan qaytgan 79,3 ming fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Ayni paytda bu jabhadagi ishlar yanada kengaymoqda. Xorijiy davlatlarga tashkiliy mehnat migratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida fuqarolar uch yo'nalishda tayyorlanmoqda. Birgina Janubiy Koreyaga ishga yuborilayotgan fuqarolar kvotasi 3,5 mingdan 9 mingga, Yaponiyaga 2 ming, Germaniya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Vengriya va Litvaga esa 1 mingtaga ko'paytirildi.

tashkilotlar aniq belgilanganiga qaramay, joylarda ishsiz fuqarolar soniga oid turli statistik raqamlarga duch kelinmoqda. Shu bois, Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tashabbusi bilan o'tkazilgan "Aholi bandligini ta'minlash samaradorligini oshirishda mehnat resurslari balansini shakllantirishning ahamiyati: muammolar va istiqboldagi rejalar" mavzusidagi seminar band bo'lmagan aholini masofadan turib tegishli mutasaddilarga ish yoki ishsizlikni e'tirof etishni so'rab murojaat qila olish imkoniyatini taqdim etuvchi platformani ishga tushirish taklifi bildirilgan edi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan shaxslarni ishsiz deb e'tirof etish va ularga ishsizlik nafaqasini tayinlash bo'yicha elektron davlat xizmatini ko'rsatish to'g'risidagi reglament tasdiqlanishi bandlik sohasidagi muammolarni aniqlash va ularga yechim topish borasida parlament va vazirlik



### “ KONSTITUTSIYAMIZDA MAJBURIY MEHNATNI TAQIQLASH BO'YICHA KAFOLATLAR HAM YANADA KUCHAYTIRILDI. YA'NI SUD QARORI BILAN TAYINLANGAN JAZONI IJRO ETISH TARTIBIDAN YOXUD QONUNDA NAZARDA TUTILGAN BOSHQA HOLLARDAN TASHQARI MAJBURIY MEHNAT TAQIQLANISHI BELGILANDI.

o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlikning ijro natijasi bo'ldi. Reglamentga ko'ra, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tuman, shahar bo'linmalari tomonidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDPX) orqali yo'llangan arizaga asosan, ish bilan band bo'lmagan fuqarolar ishsiz deb e'tirof etilishi mumkin. Asosiysi, ushbu amaliyot yo'lga qo'yilishi "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunda belgilangan normalarni hayotga ichil tatbiq etish hamda aholi bandligiga doir statistik ko'rsatkichlarning bir-biriga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu bilan esa hududlarda ishsiz fuqarolar hisobini yuritish, ularning elektron bazasini yaratish orqali manzilli ro'yxat shakllantirish va bandlik holatini tahlil qilib borish bo'yicha yangicha tizim yaratiladi.

Yana bir muhim masala — xodimlarning mehnat huquqlari ta'minlanishi borasida ham qator qonun buzilishlari aniqlanmoqda. Masalan, joriy yilda Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan 12 ming 102 ta tekshirish va o'rganish o'tkazilib, 30 ming 714 ta qonun buzilishi aniqlangan va 6155 holatda 14,3 milliard so'm jarima qo'llanilgan hamda 4342 ta yozma ko'rsatma berilgan. Bu esa ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida mehnat munosabatlariga oid

qonunchilikni targ'ibot qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirishni taqozo etmoqda.

### Kambag'allik darajasi 17 foizdan 12 foizga tushirildi

Ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligida pensiya va nafaqalar miqdori belgilangan minimal iste'mol savatchasi yoki yashash minimumidan kam bo'lmisligi belgilangan. Bu, albatta, ijtimoiy yordamga muhtoj aholining kelajakka ishonchini kafolatlaydi. Konstitutsiyamizda har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga egaligi, qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordam miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi mustahkamlab qo'yilgan pensiya va nafaqa oluvchilarning ijtimoiy himoyasi kafolati bo'ldi, deyish mumkin. Bosh qonunimizda belgilangan bu muhim tamoyillar ijrosini ta'minlash maq-

sadida hozirgi kunda Qonunchilik palatasida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning tegishli muddalari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilinmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlar ham aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar natijasida kambag'allik darajasini 17 foizdan 14,1 foizga kamaytirishga erishildi. Shuningdek, yil yakuniga qadar 127 ming 500 ta oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasini 12 foizga tushirish choralarini ko'rilmogda.

Kambag'allikka barham berishning birinchi sharti — munosib ish topish. Biroq ishsizlik, kambag'allik bor ekan, unga qarshi kurashish tizimlari bo'lishi lozim. Aynan mana shu jihat Konstitutsiyada ham mustahkamlandi. Davlat fuqarolarini ish bilan ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish, professional kasb o'rgatish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Xususan, yangi tashabbus Konstitutsiyamizda har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamситishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatlari haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga egaligi qayd etib qo'yildi. Ushbu normalar fuqarolarning ish haqi ularning mehnatiga

munosib bo'lishini ta'minlash, shuningdek, aholining turmush darajasini oshirish va mamlakatda ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyamizda majburiy mehnatni taqilash bo'yicha kafolatlar ham yanada kuchaytirildi. Ya'ni sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqilinishi belgilandi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham bandlik ko'lamin oshirish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali mehnat bozori barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, strategiyaning birinchi — har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish yo'nalishi 44 ta maqsadni qamrab olgan. Ushbu dasturiy hujjatda belgilangan vazifalardan ko'rish mumkinki, bu boradagi islohotlar izchil davom ettirilib, kelgusi yetti yilda yangi bosqichga ko'tariladi. Hujjatda nogironligi bo'lgan shaxslarning sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlanish darajasini 100 foizga yetkazish, to'siqlarni bartaraf etish orqali nogironligi bo'lgan shaxslarni munosib ish bilan ta'minlash orqali ularning bandligini 2 barobar oshirish vazifasi ham belgilangan.

Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, aholi bandligini ta'minlashga oid chora-tadbirlar, avvalo, oilalar daromadini oshirish, turmushini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lishiga erishish, pirovardida, yurtimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

“O'ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI

# AYOLLAR MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING FAOL ISHTIROKCHISI



**Sevara ISHMURATOVA,**  
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo'lim boshlig'i

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida ilk bor parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga ko'tarilib, qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 parlament orasida 37-o'rinini egalladi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foiz, partiyalarda 44 foiz, o'ila ta'limda 40 foiz, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Mamlakatimizda jamiyatimizning barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish ham doimiy e'tiborda. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid yigirmadan ziyod qonunchilik hujjati qabul qilindi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, davlat budjetidan har yili 300 milliard so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki barobar ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trilyon so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rni jamiyat ta'sir ko'rsatmoqda va bu boradagi yutuqlarimiz xalqaro miqyosda alohida e'tirof etilyapti.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Unga muvofiq, 2030-yilga kelib, barcha xotin-qizlarga nisbatan kamситishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajasida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, davlatning turli darajalarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishda olib borilmoqda. Xususan, ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini

ni, ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish, aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabar-dorligini oshirish kabi ishlar shular jumlasidan.

Gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, unda xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, ilm-fanni rivojlantirish, ayollar malakasini oshirish maqsadida olimo xotin-qizlar ishtirokida "PhD sari qadam" mavzusida o'quv kursi, "Kelajak: ilmiy qizlar hamjamiyati" ta'lim-almashinuv dasturi yo'lga qo'yilgan. Inson huquqlari va gender tenglik masalalari bo'yicha rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning salohiyatini kuchaytirish bo'yicha o'quv kurslari joriy qilingan.

Gender tenglikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ta'limdagi ijiboy siljishlarni alohida ta'kidlash kerak. Ya'ni 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyati tiklandi. Ta'limning ushbu shakli yosh ayollarga majburiy milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi Xotin-qizlar, gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. O'ildagi zo'rvonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha respublika, hududiy va tumanlararo namunalari markazi, Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti kabi yangi tuzilmalar tashkil etildi.

Mazkur barcha yangi institutsional mexanizmlar Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda BMT konvensiyasiga muvofiq, ayollar huquqlari, gender tenglik va xotin-qizlarga nisbatan kamситishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylantirish masalalarini muhim tomonidir. Qabul qilingan chora-tadbirlar esa hududlarimiz va xotin-qizlarning barcha toifalarini qamrab olishi kerak. Xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT global kun tartibining barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish jarayonida "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyilini hisobga olgan holda har xil kamситish shakllariga moyil bo'lgan xotin-qizlarning holatiga alohida e'tibor qaratish dolzarb masaladir.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida bu borada belgilangan chora-tadbirlar ana shunday dolzarb vazifalarni amalga oshirishda muhim dasturlamal bo'lmoqda. Xususan, strategiyada gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga yetkazish, jamiyatda ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish vazifalari belgilangan.

Ushbu maqsadlar ijrosi esa ayollarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lishiga zamin yaratadi. Qolaversa, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishdek ezgu maqsadlarimiz ro'yobga xizmat qiladi.





## MUNOSABAT



## IQLIMNI ASRASH BORASIDA O'ZBEKISTON

## TAJRIBASI VA TASHABBUSLARI

ekologik muammolar oqibatlarini yumshatishga xizmat qilmoqda



Ulug'bek XOLIQOV, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Shu o'rinda savol tug'iladi: dunyodagi ekologik vaziyat qanchalik jiddiy va xavotirli? Olimlar haroratning global isishi haqida xavotir bildirar ekan, siyosatchilardan iqlim o'zgarishlariga qarshi aniq choralar ko'rishni so'ramoqda. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Eng avvalo, 2023-yil tarixda eng issiq yil sifatida qayd etildi. Qolaversa, Antarktidada muzliklarning 1990-yillarga qaraganda, uch barobar tezroq eriyotgani u yerga yaqinda tashrif buyurgan BMT rahbarini ham tashvishga soldi. Boz ustiga 1994-yildan buyon dunyodagi 30 trillion tonnaga yaqin muz qatlami butkul yo'qolib ketgan. Bu, agar oldi olinmasa, butun insoniyat suv taqchilligiga duchor bo'ladi, deganidir.

Jahon meteorologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kungacha global yillik o'rtacha havo harorati 1880-yildagidan 1 darajaga ortgan. O'zbekistonda xuddi shu davr uchun o'rtacha yillik havo harorati 1,6 daraja ko'tarilgan. Ya'ni isish jadaligi global miqyosda kuzatilayotgan o'rtacha sur'atdan yuqori. Sababi O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga ko'proq moyil bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, hozir-

ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib ketdi.

Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo'ronlari, ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi kabi ko'plab muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlar turmush tarzi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, 2030-yilga borib, kamida 8 million o'zbekistonlik iqlim o'zgarishidan jabr ko'rish xatari yanada xavotirli. Ekologik vaziyat yomonlashishi kutilayotgan hududlarga Farg'ona vodiysi, Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari kiradi. Jahon banki yangi hisobotida ana shunday ogohlantirish bilan chiqdi. Ushbu hisobotda ham Orol dengizining qurishi oqibatlari O'zbekistonga xavf solib turgan eng jiddiy ekologik xatarligicha qolayotir. Bir vaqtning o'zida, suv taqchilligi, qurg'oqchilik, yog'ingarchilik miqdori kamayishi, chang-qum bo'ronlari dard ustiga chiqqon bo'layotgani tilga olingan. Hozirda iqlim o'zgarishining mamlakatdagi birgina mehnat samaradorligi, chorvachilik, irrigatsiya sohalarga ta'sirini yumshatish uchun 60 milliard dollar mablag' talab etilishi taxmin qilinmoqda.

Bugun qurib bitgan dengiz tubida cheksiz sahro paydo bo'lgan. Dunyodagi "eng yosh sahro" deya ataluvchi bu hududning nomi Orolqum. O'tgan asrning 60-yillaridan Orol dengizi suvi tortilgan cheksiz maydonlarda paydo bo'la boshlagan bu sahro bugun o'ta xavotirli qum va chang bo'ronlari manbai hisoblanadi. So'nggi ma'lumotlarda Orolqumning maydoni qariyb 60 ming kvadrat kilometr ga yaqinlashgani aytiladi. Bu deyarli uchta Farg'ona vodiysi



Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi aholining asosiy tirikchilik manbai bo'lgani bois, iqlim o'zgarishi ta'sirini, eng avvalo, dehqon va chorvadorlar his etyapti. Dunyo bo'ylab ham ayni ikki soha iqlim o'zgarishining birlamchi qurboniga aylanib bormoqda. BMT 2015-2019-yillar davomida dunyo bo'ylab 400 million gektar yoki butun boshli Markaziy Osiyo mintaqasi hududidan bir oz ko'proq yer maydoni yaroqsiz ahvonga kelib qolgan, saharlashish keskin kuchayganini qayd etgan. Ma'lumotda mintaqamizning o'zida ham vaziyat o'ta xavotirli ekan alohida ta'kidlanib, "...Markaziy Osiyoning 20 foizdan ortiq hududi yoki qariyb to'rtta Qirg'izistonga teng roppa-rosa 80 million gektar yer yaroqsiz holga kelib qolgan. Mintaqa umumiy aholisining taxminan 30 foizi buning ta'siriga uchramoqda", deyiladi.

Biz uchun xavotirli tomon, mintaqamizda yer maydoni yaroqsizlanishi ko'lami bo'yicha O'zbekiston birinchi o'ringa. Yurtimizning 26 foiz hududi yoki 3 million gektar maydon bugun na dehqonchilik qilib, na yaylov maqsadida foydalansa bo'ladigan ahvonga kelib qolgan. Buning asosiy sababi — Orol fojiasi.

Shu yil noyabr oyida 120 dan ortiq davlat vakillari Samarqandda yig'ilib, aynan o'z mintaqalaridagi saharlashish, tuproq degradatsiyasi, qurg'oqchilik muammolarini muhokama qildi. Xorijiy delegatsiyalar vakillariga yil davomida yurtimizda kuzatilgan xavotirli chang bo'ronlaridan lavhalar namoyish etildi. Binobarin, O'zbekiston uchun kuchayib borayotgan qum va chang bo'ronlari muammosi har qachongidan ham dolzarbdir. Chunki mamlakat hududining katta qismi dasht va cho'llardan iborat. Ushbu muammoni hal qilish uchun barcha darajada kompleks chora-tadbirlar ko'rish kerak. Bu masalani Prezidentimizning o'zi shaxsan nazorat qilib bormoqda.

BMTning Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha konvensiyasi (UNCCD) ma'lumotlariga qaraganda, hozirda yiliga ikki milliard tonna chang va qum atmosferaga tarqalmoqda. Buning asosiy sababi iqlim o'zgarishi oqibatlari bo'lsa, hodisaning 25 foizdan ortig'i inson faoliyati bilan bog'liq. Tadqiqotlarga ko'ra, Markaziy Osiyo va Xitoy atmosferaga chang chiqarish bo'yicha dunyoda Sahroi Kabir mintaqasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu umumiy miqdorning taxminan 20 foiziga teng. Jahon banki bunday tashvishli holatda hosildorlikning 95 foizi sug'orma dehqonchilikka asoslangan O'zbekiston

uchun suv taqsimoti vaqtida isloh qilinmagan taqdirda, iqlim o'zgarishining jiddiy zarbasiga uchrashi mumkinligidan ogohlantirilmog'unda. Ma'lum qilinishicha, mamlakatimizda suv taqchilligi 2030-yilga borib, yiliga 7 milliard kub metrni tashkil etsa, 2050-yilda bu ko'rsatkich 15 milliard kub metrga yetadi. Shuningdek, yaqin yillar ichida iqlim o'zgarishi tufayli tog'lardagi qor erib, suv oqimi ko'payishi davri yoz oylaridan bahorga ko'chishi kutilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi taqdirini yanada jiddiy xatarga qo'yadi.

Orol fojiasi asoratini yumshatish, qum-tuz uchishining oldini olish yo'lida taklif etilgan eng maqbul yechim, bu — dengiz tubini qurg'oqchilik hamda tuzga chidamli daraxt, buta, o'larni ekish orqali yashillashtirish. Bunday ishlar 2018-2019-yillardayoq boshlangan.

Oxirgi yillarda Orol tubining 2 million gektardan ko'proq qismiga saksovlul va boshqa cho'lga chidamli o'simliklar ekildi. Natijada tuz va qum bo'ronlari soni kamaydi.

Bugun ekilgan nihollar ko'karib, atrofi yashillikka burkangan. Daraxtlar bir sug'orish tizimimizga shaydi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bu loyiha o'z samarasini bera boshladi.

Yaqinda Orol hududiga ilk bor kelgan UNCCD ijrochi kotibi Ibrohim Tiav bugungi manzarani ko'rib, vaziyatni yumshatishga umid borligi haqida gapirdi: "Orolida turibman, ammo dengizni ko'rmayapman. O'rniga qum dengizini ko'ryapman. Orol bugun tarixga aylandi. Bunday og'ir sharoitga qaramay, olimlar o'zgarish qilish mumkinligini isbotlay olganini ko'ryapmiz. Qarang, bular endi 3-4 yillik ko'chatlar, ular allaqachon qum ko'chishining oldini ololadigan darajaga yetgan. Bularni ko'rib olgan xulosam shunday: o'tmishda xatolarga yo'l qo'yilgan, tabiatni tuganmas zaxiralarni manbai, deb o'ylashgan, dengiz shu qadar ulkan bo'lganidan uning suvi tugab qolishini hech kim xayoliga keltirmagan. Menga aytishlaricha, Orolning suvi, o'z vaqtida, 40 metrgacha yetgan, odamlar baliq ovlagan. Endilikda, bu suv shunchaki g'oyib bo'lganini tasavvur qilish juda qiyin".

Qanchalik nekbin prognozlar berilmasin, davlatimiz rahbari suvni tejash, irrigatsiya tizimini isloh qilish, yerdan foydalanish madaniyatini oshirish, gazga qaramlikdan qutilib, tezroq "yashil energiya"dan foydalanishga o'tish kabi zudlik bilan amalga oshirilishi shart bo'lgan tadbirlarga bosh-qosh bo'lib,

“DAVLATIMIZ RAHBARI ANJUMANDA SO'ZLAGAN NUTQIDA QATOR MUHIM TAKLIFLARNI ILGARI SURDIKI, BU O'ZBEKISTON TOMONI IMZOLAGAN IQLIM O'ZGARISHINING OLDINI OLISH VA EKOLOGIYANI ASRASHGA OID BITIM VA KELISHUVLARGA, XALQARO HAMJAMIYATNING ASR MUAMMOSIGA QARSHI KURASHIDA YELKADOSH BO'LISHGA TAYYORLIGIDAN DALOLAT BERADI.

mo'ljallangan global tuzilmani yaratish masalasi dolzarb bo'lib qoldi.

Uchinchidan, Orolbo'yi hududini innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasiga aylantirish uchun davlatimiz rahbari bu yerda ilg'or bilim, tajriba va yechimlarni qo'llash maqsadida iqlim texnologiyalari xalqaro ekspozitsiyasini yaratishda barchani yaqin hamkorlikka taklif etdi.

To'rtinchidan, Prezidentimiz Toshkentdagi "Yashil universitet" negizida tashkil etilayotgan iqlim ilmiy forumi doirasida barchani yaqin ilmiy almashuvni yo'lga qo'yish va qo'shma tadqiqotlar o'tkazishga chaqirdi. Bu ham juda muhim taklif. Chunki yer degradatsiyasining oldini olish, suvdan oqilona foydalanish, ozqovqat xavfsizligini kafolatlari ta'minlash va boshqa o'tkir masalalar forumning kun tartibidan joy oladi.

Beshinchidan, davlatimiz rahbari Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda "Yashil bandlik" dasturini ishlab chiqish, iqlim o'zgarishining bandlikka ta'sirini modellashtirish markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Iqlim muammolarini samarali yechishga yoshlarni faol jalb qilish uchun mamlakatimiz BMT iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasining Yoshlar forumini tashkil etishga tayyor ekanini qayd etdi.

O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha umumshahar y'oyalarga doim sodiqligini tasdiqlab, kelgusi yili Samarqandda xalqaro iqlim forumini



etilgan tufayli Orolbo'yida havo ifloslanishi kamaymoqda. Umuman olganda, "Yashil makon" umummilliy tashabbusi iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha muhim chora hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari anjumanda so'zlagan nutqida qator muhim takliflarni ilgari surdiki, bu O'zbekiston tomonidan imzolagan iqlim o'zgarishining oldini olish va ekologiyani asrashga oid bitim va kelishuvlarga, xalqaro hamjamiyatning asr muammosiga qarshi kurashda yelkadosh bo'lishga tayyorligidan dalolat beradi.

Birinchiidan, Prezidentimiz iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmi tezroq kelishish va "Yo'qotish va zararlarni jang'armasini tashkil etishni qo'llab-quvvatlagani iqlim inqirozini yengib o'tishda boshqa davlatlar, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanimizni anglatadi. Ushbu mexanizmlar Jahon banki va xalqaro moliya institutlari tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishi, eng avvalo, iqlim o'zgarishidan katta ziyat chekayotgan mamlakatlarga salmoqli yordam beradi.

Ikkinchidan, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish adolatli, shaffof va inkluziv bo'lishi zarurligi aytiladi. Ya'ni muqobil energiya manbalaridan keng foydalanayotgan davlatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatishi, ularning manfaatini, albatta, inobatga olishi shart. 2030-yilga borib, iqlim o'zgarishiga moslashish sa'y-harakatlarini moliyalashtirish va rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli yordam uchun har yili 200 milliard dollardan ortiq mablag' talab qilinadi. Shu bois, hozirgi vaqtda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda mablag'larni jamlash uchun

“GLOBAL MIQYOSDA KAM UGLERODLI IQTISODIYOTGA O'TISH ADOLATLI, SHAFFOF VA INKLUZIV BO'LISHI ZARURLIGI AYTILO. YA'NI MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN KENG FOYDALANAYOTGAN DAVLATLAR RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARGA YORDAM KO'RSATISHI, ULARNING MANFAATINI, ALBATTA, INOBATGA OLISHI SHART. 2030-YILGA BORIB, IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SA'Y-HARAKATLARINI MOLIYALASHTIRISH VA RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARGA TEGISHLI YORDAM UCHUN HAR YILI 200 MILLIARD DOLLARDAN ORTIQ MABLAG' TALAB QILINADI.



gi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo'lida asosiy tahdidga aylani b ulgirdi. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari zamonamizning ayanchli ekologik inqirozlaridan biri — Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalarda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda. Masalan, Markaziy Osiyoda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar ko'p, so'nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta

hududi bilan teng. Sahro sathidan yiliga 150 million tonnagacha qum va tuz aralashmasi ko'tarilib, Markaziy Osiyo davlatlari va undan naridagi hududlar havosi, tuprog'ini ifloslantiradi. Orolqum nafaqat salomatlik va atrof-muhitga ziyon keltiradi, balki iqtisodiyotga ham zarardir. 2022-yil fevralida Jahon banki Orolqum sabab birgina Qoraqalpog'iston iqtisodiyoti yiliga 44 million dollar ziyon ko'rishini ma'lum qilgandi.







## QAROR VA IJRO

# Qashqadaryo

## yirik turizm markazlaridan biri

Joriy yil oktabr oyida davlatimiz rahbarining Qashqadaryoga tashrifi davomida vohada qator sohalarni rivojlantirish barobarida turizm markazlarini tashkil etish loyihasi taklifi ham bildirildi. Loyihada viloyatning turizm salohiyatini oshirish, shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilgan bo'lib, ayni paytda tegishli sa'y-harakatlar boshlab yuborilgan.

### Qo'l uzatsang, yulduzga yetadi

Gohida shaharning shovqin-suronidan bezor bo'lib, tinch-osuda joyni istab qolgan kishi mironiyat qiziqib chiqarish uchun avval bormagan va go'zal manzarali sokin joy izlaydi. Yurtimizning halli ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan bir-biridan go'zal, ajoyib xushmanzara hududlari borki, ko'rib dilingiz yayraydi. Jumladan, Qashqadaryo vohasining go'zal tabiat manzaralarini bir mara ko'rgan kishi unga mahliyo bo'lib qolishi aniq.

Qamashi — viloyat markazidan uncha olis bo'lmagan tumanlardan biri. Uning bir qismi tog'li hududlardan iborat. Tuman markazidan yuqoriga, chamas, 20 kilometrcha masofa bosib o'tilgach, Langarkota ziyoratgohiga yetib boriladi. Tabarruk qadamjodan ruhiy quvvat olib, bir oz olisda, bulutlarga tengdosh, qalin archazorlar tomon ko'z tashlab, bexosdan shu tomonga talpinasiz. Balandlikka asta-sekin ko'tarilar ekansiz, go'yoki ertaklar olamiga kirib borayotgandek his uyg'onadi. Soyda-gi toshqin daryo yonidagi xarsangto'shga o'tirib, bir dam nafas rostlaydiz. Zirol suvda aksingizni ko'rib, bir oz notanish odamni ko'rib qolgandek xijolat tortishingiz ham tabiiy. Boisi, musaffo havoda yonqolarin-gizga rang kirib, ko'zlariniz ravshanlan-shadi. Bir zum faqatgina tiniq suvlar-dagina yashaydigan gulmo'hi baliq harakat-lariga termilib, xotirangiz ham tiniqlashib, tashvishlaringiz unutiladi. Chashma su-vidan qo'lingizda olib, qonib icharkansiz, takrorlanmas shirin ta'mdan taningiz rohat oladi. Horg'inlik chekinib, yana yuqorila-shga intilasiz.

Endi yo'l faqat tepalikka yo'naladi. Yuqorilagan sari xushbo'y ifor taratib tur-gan archalar safi quyulashib boraveradi. Dengiz sathidan taxminan 2750 metr balandlik. Aynan shu nuqtada Maydanak observatoriyasi joylashgan. Bu hududda ikkita obyekt bor. Birinchisi — Fanlar aka-demiyasi Astronomiya institutiga qarashli observatoriya. Majmua mamlakatimizdagi eng ilg'or ilmiy texnik inshootlardan biri. Maydanak noyob astroqilimi bilan dunyo-ning beshta eng yetakchi observatoriyasi sirasiga kiradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Maydanakdagi tadqiqotlar asosida har yili jahonning eng nufuzli ilmiy nashrlarida 60 ga yaqin ma-qola chop etiladi. Shuningdek, dissertatsi-yalar yoqlanadi. 30 dan ziyod xalqaro kon-ferensiyada va yerdagi ilmiy o'rganishlar taqdim etiladi.

Ikkinchisi esa yaqin-gacha Mudofaa vazirligiga tegishli bo'lgan Maydanak o'l-chash majmuasi. Keyingi yillarda uning faoliyati to'xtab qolgan. Ayni paytda



mazkur hududda Maydanak baland tog' turistik markazini tashkil etish ishlari boshlangan.

### Zamonaviy maskanlar barpo etiladi

Joriy yil 28-noyabrda davlatimiz rah-barining "Qashqadaryo viloyatining tog'-li-rekreatsiya hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra, vohaning tabiiy-iqtisodiy, jumladan, turistik salohi-yatidan samarali foydalanish, master-reja asosida xizmat ko'rsatish va mehmonxo-na majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa obyektlarni barpo etish hamda qo'shimcha ish o'rin-la-rini yaratish kabi reja-dasturlar tasdiqlan-gan.

— Belgilangan maqsadga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomoni-dan xorijiy davlatlarning malakali ekspert-lari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida loyihalar ishlab chiqilgan, — deydi Qash-qadaryo viloyati Turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari G'olib Allaberdiev. — Ulardan biri Shahrisabz tumanining "Miraki", "Amir Temur", "Uloch" va "Pol-mon" mahalla fuqarolar yig'inlari hududi-dagi umumiy maydoni 240 gektar bo'lgan yer uchastkasida zamonaviy xizmat ko'r-satish majmualari va turizm infratuzilmasi obyektlarini, jumladan, mehmonxonalar, mehmon uylari, sog'lomlashtirish va savdo-ko'ngilochar obyektlari, ikkinchisi esa Qamashi tumanining "Katta o'ra" MFY hududidagi umumiy maydoni 58,6 gektar yer uchastkasida mehmonxona, sog'lom-lashtirish sanatoriysi, umumiy ovqatlanish obyektlari, dor yo'llar, tog'-chang'i komp-lexi va boshqa turistik ahamiyatga ega obyektlar barpo etilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, Shahrisabz va Maydanak baland tog' turistik markazlari hamda ular-ni rivojlantirish va boshqarish uchun dav-lat muassasasi shaklidagi departament tashkil etish va departamentni Shahrisabz tumanida joylashtirish hamda ikki markaz hududi chegaralari tasvifi ham tasdiqlandi.

Ayni paytda viloyat hokimligi huzurida departament tashkil etilmoqda. Tez orada tegishli hujjatlar yukuniga yetkazilgach, faoliyatini boshlaydi.

Turistik markazlar hududidagi umumiy foydalanishdagi yer uchastkalari mas-ter-reja, bosh reja va batafsil rejalashti-rish loyihalariga muvofiq, infratuzilma va jittimoiy ahamiyatga ega obyektlarni barpo etish uchun yangi departamentga ham-da ushbu obyektlarni qurish, saqlash va

foydalanish vazifasini amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari, muassasalari va korxonalariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi. Tadbirkorlik va shaharsoz-lik faoliyatini amalga oshirish uchun mo'l-jallangan bo'sh yer uchastkalari esa mulk yoki ijara huquqi asosida elektron onlayn auksion orqali lotlarga bo'lingan holda realizatsiya qilinadi. Bunda, albatta, tu-ristik markazlarning master-reja, bosh reja va batafsil rejalashtirish loyihalarida nazarda tutilgan obyektlarni barpo etish sharti qo'yiladi. Har bir lot bo'yicha loyi-haning taxminiy tasvifi va arxitektura qiyo-fasiga, foydalanishga topshirish muddati-ga talablar belgilanadi. Yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan tushgan tushmalar Qashqadaryo viloyatida turizm infratu-zilmasini rivojlantirish va boshqarish de-partamentiga o'tkazilib, uning faoliyati hamda turistik markazlarni rivojlantirish, jumladan, yo'l-transport va muhandis-lik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va ta'mirlash chora-tadbirlarini moliyalashti-rishga yo'naltiriladi.

### Investitsiya jalb qilinadi

Yuqoridagi qaror bilan ma'qullangan tashabbuslarga ko'ra, yurtimizdagi qator tijorat banklarining investitsiya kompani-yalari dastlab turistik markazlar hududida tayyor biznes shaklida zamonaviy meh-monxona majmualari, umumiy ovqatlanish obyektlari, dor yo'llar, tog'-chang'i kompleksi va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etib, keyinchalik ularni "E-auksion" elektron savdo platformasida auksion savdolar orqali sotadi yoki loyi-hadagi ulushlarni realizatsiya qiladi. Ushbu tadbirlar uchun Tiklanish va taraqqiyot



jang'armasi hisobidan mamlakatimizdagi o'rtta banka jami 50 million AQSH dolla-rigacha miqdordagi kredit ajratiladi.

Tijorat banklari investitsiya kompani-yalarining mazkur tashabbuslari doirasida Shahrisabz tumanini "Miraki" MFY hududida "Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" MCHJga tegishli bo'lgan 10,6 gektar yerda ham zamonaviy mehmonxona majmualarini barpo etish maqsad qilingan va buning uchun ushbu yer dastlab Shahrisabz tu-mani hokimligi xazira yerlari fondiga be-riyadi.

Shahrisabz va Qamashi tumanining yuqorida qayd etilgan MFYlari hudud-la-rida xususiy investitsiya jalb qilgan holda 2024-2025-yillarda qo'shimcha meh-monxonalar, mehmon uylari, xizmat ko'r-satish majmualari va dam olish maskan-larini qurish maqsadida bo'sh yer uchast-kalari auksion savdolariga 10 yil muddatda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan chiqariladi.

### Shahrisabzga parvozlari yo'lga qo'yiladi

Yuqoridagi qaror bilan Kasaba uyushmalari federatsiyasining bu jabhaga oid ajoyib takliflari ma'qullangan. Ular-ga asosan, Shahrisabz tumani "Uloch"

MFY Qani qishlog'idagi "Gulnora" bolalar oromgohini rekonstruksiya qilish ishlari-ni 2024-yil iyun oyida hamda sanatoriyni qurish va modernizatsiya qilish ishlari-ni 2025-yil mart oyiga qadar yakunlab, foy-dalanishga topshirish, shuningdek, Ki-tob tumanining "Qaynar" MFY hududida 2025-yil 1-sentabrga qadar barcha sha-rolotlarga ega zamonaviy sanatoriya barpo etish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, viloyat turistik sa-lohiyatini oshirishga xizmat qiladigan yana ko'plab yangiliklarni joriy etish nazarda tutilmoqda. Jumladan, kelgusi yil 1-martdan boshlab "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan Shahrisabz aeroportiga parvozlarni tashkilalashtirish bo'yicha top-shiriqlar berilib, 2024-yil 1-sentabrga qad-ar Maydanak baland tog' turistik markazi hududidagi planetarium, observatoriya, astronomik muzey va atrofini kuzatuv may-donchasini Fanlar akademiyasi tavsiyasi asosida ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

— Bugungi kunda viloyat hokimligi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi va-zirligi va Turizm qo'mitasi bilan birgalik-da Kitob tumani "Qaynar" MFY hududida

zamonaviy mehmonxona, servis va xiz-mat ko'rsatish majmualarini barpo etishga qaratilgan master-reja ishlab chiqmoqda, — deydi G'olib Allaberdiev. — Bunda tuman hokimligi xazirasida bo'lgan, qishloq xo'-jaligiga mo'l-jallanmagan 16 gektar yerni 15 million AQSH dollari ekvivalentida in-vestitsiya kiritish va 10-yil muddatda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan auksion savdolariga chiqarish nazarda tutilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, viloyatda tu-rizm sohasini rivojlantirish uchun muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Mira-ki hududida 147 million dollarlik 41 loyiha amalga oshiriladi. Pirovardida, bu yerga tashrif buyuruvchilar safi yiliga uch million-dan oshiriladi. Bir ming yetti yuzdan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Maydanak baland tog' turistik marka-ziga avvallari 600-700ga yaqin xorijlik kelgan bo'lsa, infratuzilma yaxshilanishi hisobiga ular soni ikki mingdan ortishi re-jalashtirilgan. Mahalliy sayyohlar soni esa o'ttiz mingdan oshishi taxmin qilinmoqda. Bundan tashqari, savdo shoxobchalar, xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etilib, yangi ish o'rinlari ochiladi.

**Akbar RAHMONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## BOQIY MEROS



## SIRLASHNING SIRI NIMADA?

### yoxud milliy g'urning o'zbekona yo'li

UNESCO Hukumatlararo qo'mitasining XVIII sessiyasida "Shashmaqom", "Navro'z", "Katta ashula", "Askiya", "Lazgi" qatorida kulochilik san'ati ham insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatidan o'rin oldi.

Xushxabarni eshitganimiz zahoti yur-timizning taniqli usta kulollari, ular bilan bo'lgan suhbatlar xotiramizda qayta jonlandi, mashaqqatli mehnat sohiblariga hurmatimiz ming karra oshdi. Noyabr oyi o'rtasida poy-taxtimizda bo'lib o'tgan "Craft fair Uzbekistan — 2023" xalqaro ko'rgazmasida hamshubot bo'lganimiz — farg'onalik usta kulollar Bunud Yunusov hamda Murodjon Ahmedov faoliyati haqida bilganlarimizni gazetxonlarga ham ilu-dik. Zero, har ikkisi ham mashaqqatli hunari asnosida yosh avlodga milliy g'urning tarbi-yalash, yurtimiz nomini xalqaro maydonlarda ulug'lashga hissa qo'shayotganlardir.

### Hamma gap qizil tuproqda

— Keyingi yillarda mamlakatimizda hu-narmandlarga e'tibor ancha oshdi. Ayniqsa, Prezidentimiz 2021-yilda kulochilikni rivoj-lantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qaromni imzolagan biz uchun bayram bo'lib ketgandi, — deydi Rishton tuman Hunar-mand uyushmasi bo'lim boshlig'i Bunud Yunusov. — Negaki, bu hujjat bilan hudud-larda kulochilik an'analarini tiklash va rivoj-lantirish maqsadida sohada ixtisoslashgan markazlar va galereyalar tashkil etish, ku-lolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilishini kengaytirishga yo'l ochildi. Shuningdek, ku-lollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash,



usta-shogird maktablari faoliyatini tubdan takomillashtirish orqali yoshlarga hunar o'r-gatish, shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish, taniqli kulollar tajribasi asosida kulochilik an'analarini keng targ'ib qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish kabi chora-tad-birlar ham belgilab qo'yildi. Mana shunday e'tibor natijasida bugun unot bo'layozgan an'anaviy kulochilik turklarining hududlarda tiklana boshlagani ayni muddao bo'ldi. Biz ham viloyatlarga xomashyoni olib borish, dastgohlarni yetkazib berishdan tashqari yo'qolib ketgan kulochilik maktablarini qay-tadan jonlantirayotganimizdan baxtiyormiz. Shunisi quvonarliki, faqat o'zimizning yur-timiz emas, qo'shni davlatlarga ham dast-gohlarni, xomashyo va mahsulotlarimizni yetkazib beryapimiz. Prezidentimizning To-jikistonga tashrifidan keyin rishtonlik usta-lar yordamida Xo'jand shahrida Rishton — Xo'jand kulochilik maktabini tashkil qildik. Hozirgi kunda qaytadan tiklanayotgan Xo'-jand qal'asidagi barcha koshinlar ikki davlat ishtirokida tashkil qilingan qo'shma kor-xonada tayyorlanayapti.

Bunyod Yunusov bilan suhbat jarayonida e'tiborimizni torgan jihat uning o'simlikdan ish-qorli sir olish haqidagi gapi bo'ldi. Usta kulolning aytishicha, Rishton kulochiligining o'ziga xosligi va mashhurligi hududda qizil tuproq mavjudligidadir. Buyuk ipak yo'lining Farg'ona vodiysidan o'tuvchi qismidagi kent-lardan bo'lgan Rishton nomi qadimiy so'g'd tilidagi "rash" ("rush", "rush"), ya'ni "qizil yer" so'zidan kelib chiqqani aytiladi.

— Yana bir jihat shundaki, vodikning tog'li hududlarida qirbo'g'im degan o'simlik o'sadi. O'sha o'simlikni bir yilda bir mara terib, ish-qorli sir olamiz. Boshqa kulochilik maktablari qorishmalarni aralashdirib, mahsulot tayyor-lasa, Rishton kulochiligida faqat suv bilan

tuproq aralashdiriladi. O'ziga xos ishqorli sir borligi uchun juda uzoq yillardan buyon siri ko'chmaydigan yaxshi mahsulotlar tayyorlay-miz, — deydi usta kulol.

Markaziy Osiyoda sopol idishlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ishqor-li va qalay-qo'rg'oshni bo'yoqlar ishlatilgan ekan. Qalay oksidi rang o'chirgichi sifatida qo'llanilgan. Mis oksidi yashil va feruzaga ya-qin rangni bergan bo'lsa, marganes oksidi — to'q binafsha (jigarrang) rangni hosil qilishda ishlatilgan. Qadimda chiroqlar ham sirlangan. Masalan, Poykent kulochilik mahsulotlarining tashrif qo'g'oziga aylangan dastlabki sirlangan sopol idishlar och yashil, feruzasimon sir bilan qoplangan. Afrosiyob qazilmalaridan topilgan ma'lumotlarga ko'ra, idishlarning ikkinchi gu-ruhiga xira sirlangan va ko'k-yashil, jumladan, unchalik aniq chizilgan idishlar ham kir-itilgan. IX asr oxirida Xitoyning chinni sanoati ta'siri ostida ishqorlash usuliga barham bergan tiniq qo'rg'oshin bilan sirlab yaltirlash texnologiyasi o'zlashtirildi.

### "Sopolga ham qog'ozga yozgandek yozaveraman"

Ko'p yillar o'zbek tili va adabiyoti o'qituv-chisi bo'lib ishlashdan tashqari, 30 yildan buyon "Hunarmand" uyushmasi a'zosi bo'lgan kulol Murodjon aka Ahmedovga ijodkorligi qo'l kelyapti. Negaki, rasm chizishni-da maromiga yetkazadigan qahramonimiz bu borada ham o'z yo'lini topgan. Inson suratini chizishdek mashaqqatli san'at sevimli mashg'uloti. Ada-biyotga mehri bo'lakcha kulol Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy sin-gari buyuk siymolar suratini kulochilik mah-sulotlari — sopol laganlarda aks ettiradi. "Mehrobdan chayon" romani qahramonlari tasviri ostiga atayin asar nomini yozmagan hunarmand shu yo'l yoshlarning adabi-yotga, tarixga qiziqishini oshirishga harakat qiladi. Ya'ni qahramonlar qaysi adabiyot qaysi



asaridan ekanini topishni yoshlarning o'ziga qo'yib beradi. Hunarmand buyuk adib Abdulla Qodiriyning 130 yillik yubileyiga maxsus lan-ganlar tayyorlayapti.

— Aslida, yozishdan erinmayman, — dey-di sobiq o'qituvchi. — Chunki konspekt yoza-berish qo'llarimiz yozishdan tolmaydigan bo'lib ketgan. Kerak bo'lsa, rubo'iy, g'azallardan parchalarni ham sopol buyumlariga qog'oz-ga yozganday erinmay yozib qiqtaman. Shu orqali ham ajdodlarimizni nafaqat yoshlarga, butun dunyoga tanitish mumkin. Shuningdek, joy nomlari yozilgan buyumlarimiz ham xari-dorgir. Masalan, piyola, choynak, laganlarga Xiva, Buxoro, Samarqand, Andijon, deb yozib qo'ysangiz, allomalarning suratini tushirsan-giz, nafaqat shu hududlar aholisi, boshqa yurtdoshlarimiz ham faxrlanadi, ularni sotib olgisi keladi.

Bu — milliy g'urur, faxr tuyg'usi. Bu — Muhammad Xorazmiy, Imom Termiziy, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xazin, Muqimiy, Furqatga chin vorislik hissi-ni tuyib yashayotgan ertamiz egalarni tarbi-yalashning o'ziga xos, o'zbekona yo'li.

**Munajat MO'MINOVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-1246.

43301 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:10 Topshirildi — 00:20